



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurotov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

4. UN Environment Programme. (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. www.unep.org
5. U.S. Green Building Council (USGBC). (2021). LEED v4 for Building Design and Construction. www.usgbc.org
6. Muxamedova, D. (2021). Yashil arxitektura va ekologik dizayn. Toshkent Arxitektura-qurilish instituti ilmiy jurnali, №2, 45–50.
7. Rasulov, B. (2020). Barqaror shaharsozlik: nazariy asoslar va milliy yondashuvlar. O‘zbekiston me’morchiligi va qurilishi, №3, 32–37.
8. International Green Campus Alliance (IGCA). (2020). Green Campus Guidelines and Case Studies.
9. Yuldasheva, N. (2023). O‘zbekistonda yashil kampuslarni rivojlantirish istiqbollari. GulDU Ilmiy Axborotnomasi, №1, 51–56.
10. https://www.google.com/search?sca_esv=26624f0eb411dd2e&sxsrf
11. https://www.google.com/search?q=green+building&sca_esv

TURAR JOY ARXITEKTURASINI LOYIHALASHNING TARIXIY RIVOJLANISHI VA TRANSFORMATSIYASI

Atamuratov Adilbek Atabaevich

UrDU “Arxitektura” kafedrasi dotsenti

O‘zbekiston, Urganch shahar

Masharipova Sharifajon Alisher qizi

UrDU Magistratura bo‘limi, Bino va inshootlar arxitekturasini 241-guruh
magistranti. O‘zbekiston, Urganch shahar

Annotatsiya

Ushbu maqolada turar joy arxitekturasining tarixiy rivojlanishi va transformatsiyasi tahlil qilingan. Qadimgi davrlardan boshlab o‘rta asrlar, Uyg‘onish davri, industrial inqilob va zamonaviy arxitektura oqimlari – modernizm va konstruktivizmning ko‘p qavatli turar joy arxitekturasiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, turar joy binolarining qavatlik darajasiga ko‘ra tasnifi va ularning zamonaviy urbanizatsiyadagi o‘rni yoritilgan.

Аннотация

В статье рассматривается историческое развитие и трансформация жилой архитектуры. Анализируются этапы формирования жилищ – от древности до Средневековья, эпохи Возрождения, индустриальной революции и современных направлений, таких как модернизм и конструктивизм. Кроме того, раскрывается классификация жилых зданий по этажности и их роль в процессах современной урбанизации.

Abstract

This article analyzes the historical development and transformation of residential architecture. It examines the evolution of housing design from ancient times through the Middle Ages, the Renaissance, the Industrial Revolution, and modern movements such as modernism and constructivism. The classification of residential buildings by the number of floors and their role in contemporary urbanization are also discussed.

Kalit soʻzlar

turar joy arxitekturasi, tarixiy rivojlanish, modernizm, konstruktivizm, urbanizatsiya.

Keywords

residential architecture, historical development, modernism, constructivism, urbanization.

Ключевые слова

жилая архитектура, историческое развитие, модернизм, конструктивизм, урбанизация.

Kirish

Bizga maʼlumki turar joy arxitekturasining shakllanishi insoniyat jamiyatining rivojlanishi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik omillar bilan bevosita bogʻliqdir. Insoniyat qadimgi davrlardan buyon yashash uchun oʻz ehtiyojlariga mos ravishda turli xil turar joy shakllarini yaratib kelgan. Bu jarayon oʻzining murakkab rivojlanish bosqichlariga ega boʻlib, har bir davrda mavjud boʻlgan texnologik imkoniyatlar, iqlim sharoiti, urf-odatlar ananalar va madaniyat meroslar bu loyihalash tamoyillariga bevosita taʼsir koʻrsatib kelmoqda.

Asosiy qism

Eng qadimgi turar joylar turlari va shakllari ibtidoiy odamlar tomonidan tabiat inomlaridan foydalanib g'orlar, daraxtlar orasida va tabiiy boshpanalarda tashkil etilgan. Keyinchalik, odamlar hayvon terilari, yog'och, loy, tosh kabi tabiiy materiallardan foydalangan holda ilk boshpanalarni qurishni boshlagan. Masalan, Mezolit va Neolit davrlarida ilk turar joylar ko'proq ekologik sharoitlarga mos bo'lgan, markaziy ochiq o'choq, dumaloq yoki to'g'ri to'rtburchak shakllarda loyihalashtirilgan bo'lib, oilaviy yoki jamoaviy yashash uchun mo'ljallangan edi.


Misr, Mesopotamiya, Hind vodiysi va Xitoy kabi qadimgi sivilizatsiyalarda turar joy binolari allaqachon muayyan loyihaviy tamoyillarga asoslangan bo'lgan. Misrda nisbatan boy qatlam uchun ko'p xonali, hashamatli hovli uylari barpo etilgan bo'lsa, kambag'al aholi uchun sodda, loydan qurilgan, ventilyatsiyasiz uylar qurilgan. Mesopotamiyada esa paxsa g'ishtdan tiklangan kvartalli uylar va tor ko'chalar tizimi keng rivojlangan. Bu davrlarda shaharsozlik tamoyillari bilan uyg'unlashtirilgan turar joylar ijtimoiy tabaqalashtirishni ham aks ettirgan.

O'rta asrlar davrida turar joy arxitekturasida yanada takomillashdi. Xususan, Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekiston hududida ko'plab shaharlarda (Buxoro, Samarqand, Xiva) ichki hovli, maxfiylik, oila xonadonlarini ajratish kabi tamoyillar asosida qurilgan mahalla tizimidagi uylar shakllandi. Islom dini bu davrda turar joy arxitekturasiga bir qancha ta'sir ko'rsatdi: ichki hovli (sahn), erkaklar va ayollar uchun alohida joylar (ginekoy va selamluk), baland devorlar va derazasiz tashqi fasadlar umuman olganda qo'rg'on tipidagi hovli uylar bu davrga xos edi. Shuningdek, tabiiy ventilyatsiya, quyoshdan himoya qilish va ekologik moslashuvchanlik muhim ahamiyat kasb etgan.

Yevropada XIV–XVII asrlarda yuz bergan Uyg'onish davri inson shaxsiga bo'lgan e'tibor, uyg'unlik, muvozanat va go'zallik tamoyillarini arxitekturaga olib keldi. Bu davrda hashamatli saroylar va ko'p qavatli uylar qurilishi avj oldi. Barokko va Rokoko uslublari orqali bezaklarga boy, keng o'lchamli turar joy binolari paydo bo'ldi. Shaharlar to'liq rejalashtirilgan holda rivojlanib, turar joy massivlari shakllana boshladi.

Industrial inqilob (XVIII–XIX asrlar) bilan birga arxitektura sohasida ham tub oʻzgarishlar roʻy berdi. Zavodlar, temiryoʻl va yangi shaharlar paydo boʻlishi bilan turar joylarga boʻlgan ehtiyoj keskin ortdi. Bu davrda ishchilar uchun koʻp qavatli, standart loyihalardagi kvartiralar barpo etildi. Sifatdan koʻra son ustuvor boʻlib, iqtisodiy samaradorlik asosiy mezon sifatida qaraldi. Shuningdek, Le Korbyuzye kabi arxitektorlar tomonidan "uy – yashash mashinasi" tamoyili ilgari surildi. Bu yondashuv funksionalizm asosida shakllangan boʻlib, kvartiralar muayyan standartlarga muvofiq, optimal joylashuv, yoritish, shamollatish kabi mezonlarni hisobga olgan holda loyihalashtirildi.

Davrlar misolida turar joy binolarini qavatlar sonini koʻrsatuvchi grafik



Turar joy binolarining qavatlik darajasiga koʻra rejali strukturasi



tasniflash va shakllantirish. Turar joy binolarining arxitekturasini yaratish va ular uchun rejalashgan struktura tizimlarini tasniflashda qavatlik darajasi katta ahamiyatga ega. Arxitektura asosan aholi zichligi, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlar, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va ekologik talablar asosida shakllanadi. Turar joy binolarining qurilishiga oid strukturalar bir

qator amaliy va estetik omillarni o'z ichiga olgan holda rejalashtiriladi



Bir qavatli turar joylar-bu arxitekturadagi eng sodda va eng dastlabki shakllardan biridir. Ushbu turdagi uylar, odatda, qishloq joylarida yoki shaharlardan chetiroq hududlarda uchraydi. Bir qavatli uylarda oilaning barcha

Bir qavatli turar joylar (Single-storey houses)

faoliyatlarini o'zaro aloqada bo'lgan bir

nechta xonalar amalga oshiradi. Bunday uylar, shuningdek, mavjud joyni maksimal darajada ishlatishga yordam beradigan ochiq rejalashtirish tizimlarini

o'z ichiga oladi . Rejalashtirishda, bir qavatli uylar ko'pincha markaziy xonada yashash faoliyatini tashkil etadigan maydonni taqdim etadi, qolgan xonalar esa individual ehtiyojlarni qondirish uchun ajratilgan bo'ladi. Ushbu uylar, ayniqsa, kichik oila yoki kam zichlikdagi hududlar uchun qulay hisoblanadi.



Ikki qavatli turar joylar shahar va qishloq hududlarida keng tarqalgan. Bunday uylar o'zining ko'p qavatli binolarga nisbatan kamroq joy egallashi bilan birga, yuqori qavatda xususiy va pastki qavatda esa jamoat yoki mehmonlar uchun Ikki qavatli turar joylar (Two-storey houses)



joylar yaratadi. Ikki qavatli uylar, odatda, oilaning faoliyatini ajratish va maxsus ehtiyojlarni qondirish uchun qulaydir. Rejalashtirishda ikki qavatli

uylar ko'pincha bir-biriga tutashgan yoki alohida kirish joylariga ega bo'lgan joylarga ega bo'ladi. Shuningdek, yuqori qavatdagi xonalar ko'pincha ko'proq yorug'lik va havo olish uchun katta derazalarga ega bo'ladi. Bu uylar, shuningdek, g'isht, beton yoki yog'och kabi ko'plab materiallar bilan qurilishi mumkin.

Ko'p qavatli turar joylar, shaharlarning zichligi ortganida va yer maydoni cheklangan hududlarda zarur bo'lgan turar joylar turidir. Bu binolar odatda shahar markazlari yoki o'rta darajadagi zonalarda joylashgan bo'lib, ular nafaqat yashash uchun, balki ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishga ham xizmat qiladi. Ko'p qavatli binolar iqtisodiy samaradorlikni

Ko'p qavatli turar joylar (Multi-storey buildings) ta'minlash, yer maydonidan to'liq foydalanish va jamoat xizmatlarini tashkil etish nuqtai nazaridan yuqori darajada rivojlangan. Ko'p qavatli turar joylarning rejalashtirilishi ko'plab omillarga asoslanadi, jumladan: aholi zichligi, hududning infratuzilmasi, transport tizimi va tizimi va ekologik talablar. Bunday binolarda yashash joylari, odatda, qulay, keng va yaxshi yoritilgan bo'ladi. Shuningdek, bu binolarda xavfsizlikni ta'minlash uchun

ko‘plab zamonaviy texnologiyalar ishlatiladi. Ko‘p qavatli uylar, asosan, urbanizatsiya va shaharlarning kengayishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog‘liq ravishda rivojlangan



*Vertikal bog‘lar va yuqori texnologik binolar
(Vertical gardens and high-tech buildings)*

Zamonaviy arxitektura va qurilishda vertikal bog‘lar va yuqori texnologik binolarning roli ham o‘sib bormoqda. Vertikal bog‘lar, shuningdek, yashil binolar deb ataladi, o‘zining tabiiy ekologik tizimi bilan yuqori qavatli binolarda yashash sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi. Bu turdagi binolar energiya tejash, havoni tozalash va yashash joylarini ekologik jihatdan barqaror qilishga qaratilgan



Modernizm va konstruktivizmning XX-asr ko‘p qavatli turar joy arxitekturasiga ta’siri.

XX asrda arxitektura sohasida yuzaga kelgan ikki asosiy arxitektura oqimi — modernizm va konstruktivizm ko‘p qavatli turar joylar qurilishining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Har ikkala yo‘nalish, o‘z davrining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlariga javoban

yangi arxitekturaviy yondashuvlarni yaratdi. Ushbu maqolada modernizm va konstruktivizmning ko‘p qavatli turar joylarning dizayni va arxitekturasini shakllanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Modernizmning ko‘p qavatli turar joy arxitekturasiga ta’siri.

Modernizm — XX asrning boshlarida vujudga kelgan va arxitektura sohasida inqilobiy o'zgarishlar yuzaga keltirgan bir uslub bo'lib, uning markazida sanoat va texnologiyalar taraqqiyotining arxitekturaga ta'siri, soddalik, funksionalizm va yangi materiallar ishlatish yotadi. Modernizmning ko'p qavatli turar joy arxitekturasiga ta'sirini quyidagi asosiy jihatlar orqali ko'rsatish mumkin:

Funksionalizm. Modernizmning asosiy tamoyillaridan biri — funksionalizm edi. Funksionalizmga ko'ra, har bir arxitektura elementi o'zining asosiy vazifasini bajarish uchun yaratilgan bo'lishi kerak. Modernistlar uchun tashqi bezaklar va ornamenti ortiqcha deb hisoblanardi, binolar esa faqat insonlarning yashash joylarini tashkil etish maqsadiga xizmat qilishi kerak edi. Bu yondashuv ko'p qavatli turar joylarning samarali va funksional bo'lishiga yordam berdi, ya'ni joyni iqtisodiy va samarali ishlatish mumkin bo'ldi. Ushbu yondashuv ko'p qavatli uylarni qurishda minimalizmni va soddalashtirilgan shakllarni qo'llashga olib keldi

Konstruktivizmning ko'p qavatli turar joy arxitekturasiga ta'siri

Konstruktivizm XX asrning boshlarida Rossiyada paydo bo'lgan san'at va arxitektura yo'nalishidir. Ushbu yo'nalishning asosiy g'oyasi ijtimoiy ehtiyojlarga javob beradigan arxitektura yaratish edi. Konstruktivizm, asosan, sanoat va texnologiyaning imkoniyatlariga asoslangan arxitektura shakllarini yaratishga qaratilgan edi.

Konstruktivizmning ko'p qavatli turar joy arxitekturasiga ta'sirini quyidagicha tahlil qilish mumkin:

Texnik va industriyal yondashuvlar. Konstruktivizm ko'p qavatli turar joylarning qurilishida texnik va industriyal yondashuvlarni joriy etdi. Ushbu yondashuv ko'p qavatli uylarning samarali va bardoshli bo'lishini ta'minladi. Konstruktivist arxitektlar, binolarni qurishda yangi texnologiyalardan va industrial materiallardan foydalanishga katta e'tibor qaratdilar. Shuningdek, ko'p qavatli uylar hamma uchun teng imkoniyatlarni taqdim etadigan tarzda loyihalangan bo'lib, ko'p qavatli turar joylarning ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarga mos kelishini ta'minladi.

Turar joy arxitekturasining tarixiy rivojlanishi va transformatsiyasi insoniyatning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va texnologik ehtiyojlariga mos ravishda o'zgarib, rivojlangan. Har bir davrning o'ziga xos sharoitlari, texnologik yutuqlari va ijtimoiy talablariga javoban turar joy arxitekturasida o'zining shakli, funksional imkoniyatlari va estetik yondashuvlarini yangilab borgan. Ushbu jarayonlar zamonaviy shaharlarning shakllanishiga va ularning aholisi uchun turar joylarning qulay va barqaror muhitlarga aylanishiga olib keldi.

Xulosa

Turar joy arxitekturasida insoniyat tarixida dastlabki bosqichlarda oddiy va funksional shakllarda bo'lgan. Antik davrda va o'rta asrlarda, arxitektura asosan amaliy ehtiyojlarga xizmat qilgan. Shaharlar qurilishida yuqori ijtimoiy toifalarga mo'ljallangan hashamatli saroylar bilan birga, oddiy xonadonlar ham mavjud edi. Bu davrlarda arxitektura asosan tasodifiy va foydalanishga mos tarzda shakllanib, jamoat inshootlari ko'p bo'lmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ArchDaily – Residential Architecture History and Trends.
<https://www.archdaily.com>
2. UNESCO – World Heritage and Traditional Housing. <https://whc.unesco.org>
3. Encyclopedia Britannica – History of Architecture.
<https://www.britannica.com>
4. ResearchGate – Modernism and Constructivism in Architecture.
<https://www.researchgate.net>
5. Springer – Urbanization and Housing Development. <https://link.springer.com>
6. ScienceDirect – Sustainable Residential Buildings.
<https://www.sciencedirect.com>